

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MINTAQAVIY
O'QUV MARKAZI



**"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI
BO'LINMALARIDA ILMIY VA INNAVATSION
FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH"**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**

NUKUS-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MINTAQAVIY O'QUV MARKAZI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI BO'LINMALARIDA
ILMIY VA INNAVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi mintaqaviy o'quv markazining 2022 o'quv yili birinchi yarim yillik uchun ish rejasiga asosan o'tkazilgan

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

(2022 yil 22 yanvar)

NUKUS-2022

**GADJET TEKNOLOGIYALARI - BOLALAR NUTQ RIVOJLANISHIGA TA'SIRINING IJOBIY VA
SALBIY TOMONLARI**

Bolalikni qo'llab-quvvatlash, bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarda belgilangan talablarga javob berishi ya'ni kamol topishi hamda davlat organlarining ushbu manbalar ijrosini ta'minlashda hozirgi kunda bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularning barkamol avlod bo'lib etishishini ta'minlash borasidagi faoliyatning institutsional va huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish zarurati yildan yilga bir qancha vazifalarni bajarishni keltirib chiqarmoqda. Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro xujjatlarning har tomonlama hayotga tatbiq etish, O'zbekiston Respublikasi asosiy qonuni va milliy qonunlarda nazarda tutilgan bolalarning huquqlarini amalda kafolatlash, ularning jismoniy, intellektual, ruhiy va ma'nnaviy etuk avlod bo'lib etishishini ta'minlashda "Yangi O'zbekiston Strategiyasida ham o'z aksini topgan. Shu asnoda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan Milliy gvardiya organiga biriktirilgan Mehribonlik uylaridagi bolalarni ota-onalariga qaytarish, vasiy tayinlash va farzandlikka olishga yordam berishi va o'quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchilarining muammolarini o'rganish va hal etish uchun «Mehr daftari» tizimi joriy qilindi. Shu bilan birga, mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan 2021 yil 9 avgust kuni «Etim bolalar va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»[1.]gi qarorni imzolagani ham katta yutug' bo'ldi.

Ushbu hujjatga asos Milliy gvardiyaga qo'shimcha vazifalar yuklatildi. Bular - o'quv-tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilarini ota-onasi yoki ularning o'mini bosuvchi shaxslarga qaytarish, vasiy yoki homiy tayinlash, farzandlikka berish va joylashtirishning boshqa shakllarini qo'llash choralarini ko'rish; etim bolalar va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash; o'quv-tarbiya muassasalarida sifatlari ta'lim va tarbiya jarayonini yo'nga qo'yishga, ularning maishiy shart-sharoitlari yaxshilanishiga, shuningdek, tarbiyalanuvchilarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish; etim bolalar va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lган bolalar uchun ma'nnaviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish; zamonaviy usul va shakllardan foydalangan holda jismonan sog'iom, ma'nnaviy etuk va dunyoqarashi keng yoshlarini shakllantirish, etim bolalar va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarni sport turlariga qiziqtirish va jalb etish. Shu qatori, Milliy gvardiya tarkibida tarbiya muassasalarini faoliyatini tashkil etishga mas'ul bo'lган Milliy gvardiya qo'mondonining o'rinnbosari lavozimi va Jamoat xavfsizligi universitetida yoshlar bilan ijtimoiy ishslash kafedrasi tashkil etildi.

Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchi va xodimlari vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlikda bir oyda kamida bir marotaba etim bolalar va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lган bolalar bilan suhbatlar o'tkazish asosida ularning ta'lim-tarbiya olish ahvolini va maishiy shart-sharoitlarini o'rganib kelmoqda.

Yuqoridagi bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilayotganligini biz amalda ham guvohi bo'lmoqdamiz.

E'tibor qaratilishi lozim bo'lган mazkur muammo esa hozirgi kunda tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan kompyuter-texnika davrida gadjet texnologiyalarining bolalarda nutq nuqsonlarining rivojlanishidagi ta'siri hisoblanadi. Bu nafaqat mehribonlik uylarida balki mamlakatimiz barcha yacheykalarida ya'ni har bir oilada bu muammo hozirgi kunda aktual hisoblanadi.

Har bir oila o'z farzandiga zamonaviy uyinchoq yoki texnologiyani olib berishni istaydi, shu qatori ham bejiz yuqorida keltirganimizdek mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ham ishlab chiqilgan va qabul qilingan normativ-me'yoriy hujjatlari ijrosi bolalarning har tomonlama zamonaviy sharoitlarni yaratib berilayotganligi o'z tasdig'ini topmoqda.

Ushbu masalada yana bir marotaba ta'qidlashimiz lozimki, albatta gadjet texnologiyalarining bolalarga salbiy va ijobjiy tomonlarini ko'rib chiqishdan iborat hisoblanadi. Bunnan oldin ushbu terminning paydo bo'lishi, tushunchasi va mazmunini bilishimiz lozim hisoblanadi.

Mazkur termin ingliz tilidan tarjima qilingan "gadjet" so'zi moslashish, qurilma, dangasa degan ma'noni bildiradi. Ushbu turkumda inson hayotini sezilarli darajada yaxshilashga qodir kichik qurilmalar mavjud. Ular turli sohalarda qo'llaniladi: ishda, o'yin-kulgi dunyosida, sportda, pishirishda va hokazo [2.].

Ayniqsa, gadjet bir nechta funksiyalarni birlashtiradigan portativ qurilma (ya'ni kichik vazn va o'lcham). Agar gadjet do'konini ochsak, bizga smartfonlar, telefonlar, planshetlar, noutbuklar, kameralar, mp3 pleerlar, minigarnituralar, "aqlli" soatlar taklif etiladi.

Gadjet turlariga Apple iPhone, Televizor Sony Trinitron, Personal kompyuter Apple Macintosh, Kassetali pleer Sony Walkman, Kompyuter IBM Model 5150, Fonograf Victrola, Radiopriemnik Regency TR-1, Fotokamera Kodak Brown va boshqalar kiradi.

Gadjetlar odamlarga aloqa o'matish, turli xil maishiy masalalarni hal qilish va vaqtinchalik omilni optimallashtirishga yordam beradi. Ular uzlusiz axborot oqimlariga kirishni ochadilar, keng ko'lamli vazifalarni osonlashtiradilar. Zamonaviy gadjetlar inson hayotini yanada qulayroq qilishga yordam beradi va imkoniyatlarni kengaytiradi [3.].

Ijobiy tomonlari ko'rib o'tkanimizdek - bu insonlarga har tomonlama qo'layliklar yaratib beradi ekan. Savol to'g'iladi, salbiy tomoni bormi? Barchamizga ma'lumki, inson yaratgan har bir ishning salbiy tomoni ham bo'ladi. Bu asosan, gadjet texnologiyasining maktabgacha bo'lgan bolalarga bo'lgan salbiy ta'siridir.

So'nggi yillarda ota-onalar va pedagoglar bolalarda gapiresh nutqining rivojlanishidagi uzulishlarni kuzatmoqdalar. Bunda bolalar o'z vaqtida gapirishdagi nutqining kechigishi, kam va noto'g'ri gapirishadi, ularning nutqi sust va regresslik holatini ko'rsatmoqda. XX asrning 1990 yillari o'talarida 4% bolalarda nutq buzilishi kuzatildi. XXI-asrning so'nggi yillarda bolalardagi nutq buzilishlarining ulushi 25% ga, ya'ni 6 martagacha oshgan, bu nafaqat mamlakatimizda balki rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ko'paymoqda.

Erta yoshta nutqni o'zlashtirish faqat jonli, bevosita muloqotda bo'ladi, bunda chaqaloq nafaqat boshqa odamlarning so'zlarini tinglabgina qolmasdan, balki suhabat qilish bilan birga boshqa odamga ham javob berishida ifodalananadi.

Hozirgi kunda bolalarning aksariyat qismi (zamonaviy bolalar) kattalar bilan muloqot qilish darajasi sust ya'ni ko'pincha ular javob talab qilmaydigan teledasturlarni tomosha qilishadi va jum o'tirishni yoki qichqiriq yoki imo-ishoralar bilan gaplashishni afzal ko'radir.

Ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini gapirishdan ko'ra gadjetlarni tez o'rgansa ertangi kunda kompyuter-texnikani yaxshi o'zlashtiradi deb fikrlaydi. Biroq, konkret davrda telefon va planshetlarda ko'proq vaqt o'tkazadigan birinchi bolalar gapirishda so'zlarni bir-biriga bog'lashdagi to'siqlik va tovushdagi talaffuzlarning notug'ri ifodalinish holatlari ortmoqda[4.]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hozirgi kunda bolalarni gadjetlardan to'g'ri foydalanish uchun har bir ota-onasi qo'yidagi ishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.

1. Ota-onasi bilan o'z munosabatlarini tahlil qilish. Har kuni birga qancha vaqt o'tkazayotganlikni va qanday muloqot qilayotganlikni, bir-biriga ishonch darajasi, bola bilan bevosita savol-javob muloqot qilish vaqtini hisoblash, bola ota-onani qanday darajada o'zining yaqin insoni ekanligini bilish.

2. O'rnak bo'lish. Ota-onaning o'zidan boshlash. Kattalar o'z farzandlariga qanday o'rnak ko'rsatayotganligini. Planshet yoki kompyuter bilan vaqt o'tkazadigan ota-onalarning turmush tarzi bolaga ham ushbu turda o'tadi.

4. Jonli muloqot . Ota-onasi bir qoidani o'ylab topish mumkin: uyg'a kelganinda, telefoninni o'chirish va bolaga vaqt ajratish.

5. Bolalar bilan stol o'yinlarini o'ynash - bu daqiqalar bolaning xotirasida qoladi. Siz bilan stol o'yinlarini o'ynagan bolalar kelajakda o'z farzandlari bilan ham o'ynashadi.

6. Ma'suliyatni o'rgatish. Ota-onalar uyda bo'lmaganda yoki ota-onalar boshqa ish bilan band bo'lgan taqdirda ham bola bilan multfilmlarni tomosha qilish uchun ma'lum vaqt ajratish kerakligi haqida kelishib olish.

Shunday qilib, bugungi kunda gadjetlardan foydalanish muammosi dolzarbdir. Ota-onalarning gadjet texnologiyalaridan noto'g'ri foydalanishdagi tarbiyasi bolaning salbiy rivojlanishiga olib keladi. Bolaning

rivojlanishi, ayniqsa nutqning rivojlanishi ota-on va bola muloqotisiz mumkin emasligini anglashimiz lozim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.08.2021 y., 07/21/5216/0783-son Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.08.2021 y., 07/21/5216/0783-son
2. <https://ru.wikipedia.org>.
3. <https://www.google.com>.
4. <http://logoportal.ru>.

Qurbaniyazova Zubayda Saparniyazovna

*Nukus shahri XTB qarashli 27-sonli umumta'lim
maktabi tarix fani o'qituvchisi*

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA JANUBIY OROL BO'YIDA BUNYODKORLIK ISHLARI

Evroosiyodagi mug'ul davlatlarining inqirozi va parokandaligida Amir Temurning markazlashgan davlat siyosati katta, muhim ahamiyatga ega. Movarounnaxr hokimi bo'lgan Sohibqiron inqiroz holatida bo'lgan xududlar viloyatlarini biriktirish siyosatini olib bordi. Amir Temur 15 yilga cho'zilgan (1372-1388 yy) kurashlardan so'ng Qung'irot Sufilari boshqargan Janubiy Orol buyi shaharlarini Oltin O'rda zulmidan xolos etdi va viloyatni Movaraunnaxrga, o'z davlatiga qo'shib oldi. Lekin Sohibqironning Xorazmga majburiy yurishlari totalitar tuzum davrida keskin salbiy baho topdi. Amir Temur boshqaruvi O'rta Osiyo xalqlariga, nisbatan Xorazm kabi chetki o'lklar tarixiga salbiy ta'sir ko'rsatdi deb kelindi. Lekin tarixiy haqiqatlik Amir Temur davrida tuzilgan kuchli markazlashgan davlat, qaytadan qurilgan shaharlar, ajoyib inshootlar, hunarmandchilik va savdoning gullab-yashnaganligi va nihoyat uning davrida tinchlik o'rnatilgan Janubiy Orol buyi shaharlar tarixi o'rganilmay kelindi. Amir Temur va Temuriylar davridagi Janubiy Orol buyi shaharlar madaniyatining barcha tarmoqlarini qamrab oluvchi chuqur obyektiv ilmiy tadqiqot ishlari yo'q. Ushbu jihatdan mustaqillik yillarda Janubiy Orol buyi shaharlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Temuriylar davri shaharsozlik arxeologiyasiga oid yangi artefaktlarni kashf etmoqda.

Amir Temur va Temuriylar davrida Xorazm Mavorunnaxrdek markazlashgan davlatning shimoliy-g'arbiy xududlaridagi barqarorligini saqlashga xizmat qildi. Amir Temur siyosati Markaziy Osiyo xududlarida shaharlar, hunarmandchilik, savdo-sotiq ishlari, madaniyat va ma'rifiy o'sishni, integratsiyalanishni ta'minladi. Tarixiy manbalar, jumladan Ibn Arabshax, Nizomaddin Shami, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy va qator Temuriylar davri muarrixlari Amir Temur davrida Xozarasp, Kyat, Xiva, Urganch (Gurganj) shahar devorlari va uy-joy qurilishlari qayta qurilganligini takidlaydi. 1391 yili Sohibqiron shimaldan, Dashti Qipchoq yurishidan qaytganidan so'ng ostona shahar Urganchni qayta tiklashga buyurdi. Shu davrda Amir Temurning bunyodkorlik ishi haqida Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnomada» yozadi: «Sohibqiron ba'zi viloyatlarni olib buzor erdi va ba'zini tuzub, imorat qilur erdi. Dashti Qipchoq yurishidan qaytganda Musikakimni, Xanki Kavchinning ug'li, Xorazmga yubordi, borib imorat qilgay. Ul borib qal'ani yasadi va hozir ushul imorat turarkim, sohibqiron davlatidan bulgon turor» [1]. Amir Temur farmoni bilan qayta tiklangan Gurganj shu davrning o'zidayoq savdo va hunarmandchilik markazi bo'ldi. Bu joyda Xorazm deganda faqat Gurganj emas balkim butun Janubiy Orol buyi yurtidagi qayta tiklanish tushiniladi. Janubiy Orol buyi shaharları: Vazir (Devkesken), Shemaxa qal'a (Qumkent), Mizdarkhan, Puljoy (Djiti), Adak yodgorliklaridagi Temuriylar davri topilmalari fikrimizni qo'shimcha ta'kidlaydi. Amir Temur faoliyati tufayli Amudaryo havzasini xududlarida o'troq-dehqonchilikka asoslangan elatlar yangi yutuqlarga erishdi.

Bu davrning iqtisodiy yutuqlari Gurganjning Tosh qal'a (Kaan) deb nomlangan Amir Temur va Temuriylar davridagi shaharning markaziy dahasidagi, Puljoy va Mizdarkhandagi arxeologik tadqiqotlarda ko'plagan hunarmandchilik va savdo joylari, rastalarini ochishda ham aniq ko'rindi. Bu davrning mahalliy shaharları kulolchilik, temirchilik, shishasozlik, to'qimachilik va turli xil kasb egalari to'planadigan joy bo'lib qolgan[2]. Jumladan Janubiy Orol buyi shaharlarida koshonasozlik sohasi ancha rivojlangan. Koshon idishlari deb nomlangan

Sh.I.Ibragimova	Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	103
Sh.M Islomov	O'zbekiston respublikasida innovatsion faoliyatning rivojlanish tendensiyalari.....	105
Sh.R.Musaev	Xorijiy mamlakatlarda professional harbiy kadrlarni tayyorlash jarayonining qiyosiy tahlili.....	107
T.Sh.Qallibekov	Axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ta'lim tizimidagi o'rni.....	109
X.A.Rasulov., F.A.Niyozov	Ta'limda innovatsiyaning muhimligi.....	111
X.B.Ibragimov., O.A.Shaymatov	Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda zamonaviyaxborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.....	113
X.U.Ubenov	Ózbekstan Respublikasi Milliy gvardiyasi aymaqliq oqiw oraylarinda tálím beriwdi jeddellestiriwdegi ayrim innovaciyalig ma'seleler.....	115
Y.Y.Turanov	O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mintaqaviy o'quv markazlarida innovatsion pedagogik faoliyatning istiqbollari.....	117
Z.O.Esnazarova	Gadget texnologiyalari - bolalar nutq rivojlanishiga ta'sirining ijobiy va salbiy tomonlari.....	120
Z.S.Qurbaniyazova	Amir temur va temuriylar davrida janubiy orol bo'yida bунyodkorlik ishlari.....	122
A.Қ.Байрыева	Жаңа Өзбекстан – жана ренессанс.....	123
A.M.Султанбаев., Ф.К.Бегимкулов	Особенности применение видеонаблюдение на стройплощадке.....	126
Б.С.Бекниязов	Оқыўшы-жасларда патриотизм сезимлерин оятыуда тарихий-маданий мийраслардың әхмийети...	127
Б.Т.Исхаков	Интеграция практического опыта в учебный процесс образовательных учреждений силовых структур...	129
Г.У.Темирханова	Қарақалпақ тилиндеги эскерий терминлердин лексика-семантикалық өзгешелігі.....	131
Е.Б.Ташманов., А.М.Султанбаев	Система охранного видеонаблюдения на стройплощадке.....	133